

## Temperamentni aniqlash

13.03.2020 yil kuni Institut psixologi Muxamedova Muhayyo, YeRB fakulteti dekan o'rinosari Eshova Hurriyat va TTJ hamshirasi Hayitova Xurshidalar 3-TTJda YeRB fakulteti qizlari ishtirokida "Koronavirus haqida ma'lumot berish uchun" yig'ilish o'tkazishdi. TTJ hamshirasi Hayitova Xurshida yig'ilish ishtirokchilariga virusdan ehtiyyot bo'lish chora-tadbirlari to'g'risida tushuncha berib o'tdi. Ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarni berishdi. Savollarga institut psixologi Muxamedova Muhayyo, YeRB fakulteti dekan o'rinosari Eshova Hurriyat va TTJ hamshirasi Hayitova Xurshidalar javob berishdi. Yig'ilish so'ngida qizlar psixologik test va treninglar o'tkazib berishni institut psixologidan iltimos qilishdi. Institut psixologi yig'ilish ishtirokchilariga "Temperamentni aniqlash testi", "Assotsiativ test" va intellektni aniqlashtiruvchi "Sen kim?" deb nomlanuvchi testlarni o'tkazdi. Yig'ilish ishtirokchilari bu yig'ilishdan o'zlariga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni olishdi. Yig'ilish ishtirokchilari bunday uchrashuvlar tez-tez uyushtirib turilsin deya takliflar kiritishdi. Yig'ilish ko'tarinki ruhda o'z yakuniga yetdi.



**TIQXMMI matbuot xizmati**